

MUSIQA MADANIYATINING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

O‘ktamova Kumush Ulug‘bek qizi*Navoiy Davlat Universitet “Musiqqa ta’limi” yo‘nalishi I-bosqich talabasi***Ilmiy rahbar: Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi***“Musiqqa ta’limi” kafedrasi v.b.dotsenti*

Annotatsiya: *“Musiqqa madaniyatining inson hayotidagi o‘rni” mavzusi inson ma’naviyati, estetik tarbiyasi va ruhiy kamolotida musiqaning ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Musiqqa qadim zamonlardan buyon insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u kishilarning hissiy kechinmalari, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilib keladi. Ayniqsa, milliy musiqqa merosi xalqning urf-odatlarini, an‘analari hamda tarixiy xotirasini avlodlardan avlodga yetkazishda katta o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *Musiqqa, musiqqa madaniyati, inson ruhiyati, kayfiyat, estetik tarbiya, milliy musiqqa, san‘at, vatanparvarlik, shashmaqom, zamonaviy musiqqa, klassik musiqqa.*

Musiqqa madaniyati bu –inson ruhiy olamining tafakkuri va jismoniy xarakter qismlarining, his-hayajon va tuyg‘ular orqali beixtiyor uzluksiz faoliyatidir. Musiqqa muhit faqatgina raqsga tushish, ashula, qo‘shiq tinglash, hirgoya etish, sahnaviy dasturlar tomosha qilish yoki tashkil etishgina emas. Musiqqa san‘ati orqali, biz o‘zimiz ulg‘ayayotgan yoshlarga milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, bolalik quvonchi bilan bir qatorda kelajak orzusining eng yorqin milliy tafakkurini singdiramiz. Musiqqa madaniyati bu nafaqat ko‘ngil ochar musiqqa muhit, balki xalqimizning ozodlik, xurlik, bugungi kundan mamnunlik na‘munasi bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy san‘at turlarini olganda musiqqa san‘ati inson ruhiy tabiatiga o‘ziga-cha ta‘sir ko‘rsatadi. Bu xaqda olimlar turli tadqiqot nazariyasidan kelib chiqib aytadilarki, bolalik davrida musiqqa san‘ati bilan shug‘ullangan insonlar kelajakda buyuk shaxslar bo‘lib yetishib chiqadilar deb turli misollar keltirishgan. Ulardan Iosef Stalin bolalik davrida skripka chalishga qiziqqan va cherkov xorlarini tinglash uchun muntazam borib turgan, o‘z tariximizga yuzlansak adabiyot va siyosat, turli soha vakillari shu jumladan jadidchilik xarakati a‘zolari ham shoirlar-u sozandalar bilan musiqqa kechalar tashkillashgan ekan. Oldingi davr va hozirgi davrni solishtirsak, musiqqa san‘ati orqali insonlarning diniy qarashlarini kengaytirish maqsadida xam foydalanishgan bunga misol, Barokko davri musiqalarida cherkov targ‘iboti kuchli bo‘lgan bunga misol I.S.Bax, Vivaldi, G.F.Gendel asarlari yaqqol misol bo‘la oladi. Klassitizm davri musiqalarida sahnalashtirish, ommaviylashtirish jarayonlari keng targ‘ib qilinadi

Y. Gaydin, V.A. Motsart, L. Betxoven kabi kompozitorlarning yengil o‘ynoqi asarlari na’mana bo‘ladi. Romantizm davri inqilobiy hisoblanib F. Shubert, F. Shopen, kabi kompozitorlar o‘z asarlarida so‘z bilan namoyon bo‘lmagan ruhiy kechinmalarini musiqiy tovushlarda ifoda etganlar. Bundan tashqari Impressionizm davri yangilanish sifatida namoyon bo‘lib, keyinchalik New Klassika davrini boshlab beradi. Musiqa tarixiga yuzlansak bir maqola yoki bir kitob yetmaydi. Musiqa madaniyati yil asrlar sari shakllanib keladi u to‘xtamaydi, tugab qolmaydi yangi qism, asar, yangi davrni boshlayveradi. Hozirgi davr musiqalari ham rivojlanish, sayqallanish jarayonlaridan o‘tib bormoqda. Musiqa madaniyat asrlar osha insoniyatruhiyatining kerakli ozuqaviy unsurlaridan biri bo‘lib kelgan. Insoniyat ruhiyatiga bog‘liq jarayonlarini yanada chuqurroq muloxaza qilsak, hozirda relaks darajasida etirof etilgan bir nechta asarlar mavjud. Ruhiy olamning ma‘lum darajada tinchlik, xotirjamlikga erishishi, ba‘zilari orqali mudragan tuyg‘ularni uyg‘otishga undovchi musiqalar ham kam emas. Musiqa orqali meditsina soxasi vakillari, ruhiy omillar bilan zo‘riqgan bemorlarga psixolog ko‘rigida relaks musiqalar orqali turli terapiyalarda qatnashishlarini, logopetik nuqsonlari bor, nafas olishda muammoga duch keladigan bemorlarga xam aynan musiqiy mashg‘ulotlar tavsiya etadilar. Misol tariqasida yana bir fikrni keltirib: “Insonning ruhiy va jismoniy xolati ko‘p xollarda uning bolaligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yillar o‘tishi bilan biz buni yanada teran anglaymiz. Bolalikdan boshlab biz, ota-onalarimiz hayoti, ularning va atrofimizdagi insonlarning bizga nisbatan bo‘lgan munosabatlari, turli ko‘rinishdagi cheklovlar, ayriliqlar, kasal-liklar hayotimizga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi.” “Tafakkur va go‘zal chehra sari yana bir qadam” (Psixologik trening to‘plami) Xalilova Gulnora Albatta bu fikrlar o‘z tadqiqot natijalariga erishilgan va siz mushtariylarga yetkazilgan.

Musiqa madaniyati insoniyat hayotida muhim ma‘naviy omillardan biri hisoblanadi. U insonning ruhiy olami, estetik dunyoqarashi va axloqiy tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Qadimdan buyuk mutafakkirlar musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta’siri haqida fikr bildirib kelganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o‘zining Musiqa ilmi haqida katta kitob asarida musiqaning inson ruhiyati va tarbiyasidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino ham musiqani inson salomatligi va ruhiy tinchligini ta’minlovchi vosita sifatida baholagan. Musiqa insonning hissiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Inson quvonch, qayg‘u, sog‘inch yoki muhabbat kabi tuyg‘ularini musiqalar orqali yanada chuqurroq his etadi. Shu sababli ham musiqalar inson qalbiga tez ta’sir qiluvchi san’at turi hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida musiqaning o‘rni beqiyosdir. Yaxshi va mazmunli kuy-qo‘shiqalar yosh avlodning estetik didini shakllantirib, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. O‘zbek milliy musiqalar san’ati xalqning boy ma‘naviy merosini aks ettiradi. Ayniqsa, Shashmaqom xalqimizning ko‘p asrluk madaniyati va san’at an’analarini

o‘zida mujassam etgan. Milliy kuy va qo‘shiqalarda xalqning tarixi, urf-odatlarini, orzu-intilishlari hamda hayot falsafasi ifoda etiladi. Shu bois musiqa milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda musiqa madaniyati jamiyat taraqqiyotida ham katta rol o‘ynamoqda. Turli madaniy tadbirlar, konsertlar va festivallar insonlarni birlashtirib, ularning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Musiqa insonni ezgulikka, go‘zallikka va ma’naviy poklikka chorlaydi. Shu bilan birga, musiqa terapiyasi ham tibbiyot va psixologiya sohalarida keng qo‘llanilib, insonlarning ruhiy holatini yaxshilashga yordam bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u ma’naviy kamolot, estetik tarbiya va ruhiy sog‘lomlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Milliy musiqa merosini asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiyning “Musiqa ilmi haqida katta kitob” asari
2. O‘zbek musiqa tarixi/ T.E. Solomonova-Toshkent “Oqituvchi” 1891
3. Jahon musiqa tarixi fanidan o‘quv qollanma: G‘arb musiqa san’atining XVIII asrgacha shakillanish va rivojlanish/ G. R. Tursunova-Toshkent 2017
4. Ibrohimov O. A., Xudoyev G. M., “Musiqa tarixi” Toshkent 2018-yil.
5. Gulnora Sharipova “Musiqa va uni o‘qitish metodikasi” Toshkent 2019-yil.